



**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**R.D.Yuldashev**

**4-band.Ijro uchun**

***Ijro muddati: 30 April 2024***

**№01-02-446**  
19 Mart 2024

**R.I.XALMURADOV**  
Pektor





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

2024 - yil « 18 » mart 73 -son

**Toshkent shahri**

**Oliy ta’lim muassasalari talabalari  
o‘rtasida “Yosh kitobxon talabalar  
ligasi” tanlovini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmonining 5-ilovasi 25-bandida belgilangan oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Yosh kitobxon talabalar ligasi” tanlovini tashkil etish hamda qo‘shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg‘iz va turkman) o‘tkazishni ta’minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Talaba-yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ‘ib etish, kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish va rag‘batlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida o‘tkaziladigan “Yosh kitobxon talabalar ligasi” tanlovi (keyingi o‘rinlarda tanlov deb yuritiladi) joriy yilning aprel-may oylarida o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlari o‘rtasida o‘tkaziladigan “Yosh kitobxon talabalar ligasi” tanlovining nizomi 1-ilovaga;

Respublika hamda hududiy tashkiliy ishchi guruhi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yoshlar siyosati va ma’naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi (N.Kasimov), Vazirlik huzuridagi Talaba va o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (R.Xudayberganov):

mazkur tanlovni belgilangan muddatlarda o‘tkazish va u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirsin;

tanlov e’loni targ‘iboti, tanlovni o‘tkazish jarayoni hamda tanlov g‘oliblari haqidagi ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda, jumladan, vazirlik, vazirlik huzuridagi markaz va ta’lim muassasalarining rasmiy sahifalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

4. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari, filiallar direktorlari:  
mazkur tanlovni belgilangan muddatlarda o'tkazish va u bilan bog'liq barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

tanlov to'g'risida barcha talaba-yoshlarni xabardor qilish bo'yicha targ'ibot ishlarini sifatli yo'lga qo'yish va tashkil etish;

tanlov g'oliblarini oliy ta'lim muassasasining talabalarni rivojlantirish jamg'armasi hisobidan nizom asosida rag'batlantirish hamda ularning ot-onalariga tashakkurnomalar yetkazish choralarini ko'rsin.

5. Mazkur buyruq ijrosi nazorati vazir o'rinbosari S.Buzrukhonov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**K.Sharipov**



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirining 2024-yil "18" martdagi  
43 -son buyrug 1 ilox



## Oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida o'tkaziladigan "Yosh kitobxon talabalar ligasi" tanlovining NIZOMI

### I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tanlov universitet talaba-yoshlari o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini keng targ'ib etish, kitobga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish va rag'batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

2. "Yosh kitobxon talabalar ligasi" tanlovida ta'lim yo'nalishi, sohasi, mutaxassisligidan qat'iy nazar, respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar jamoaviy bo'lib ishtirok etadi.

3. Tanlovda talaba-yoshlarning keng qamrovli ishtiroki oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari hamda fakultet dekan o'rinbosarlari tomonidan ta'minlanadi va muvofiqlashtiriladi.

### II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning asosiy maqsadi – talaba-yoshlar o'rtasida badiiy asarlarning hayotimizdagi o'rni va ahamiyatini targ'ib qilish orqali yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning kitobdan foydalanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

mamlakatimizda kitobxonlikni keng targ'ib etish;

badiiy asarlarni yaratish va qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlarini hamda jamiyatimizda yuksak ma'naviyatni shakllantirish va mustahkamlashda badiiy asarlar roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

ijodkorlar tomonidan yangi yaratilgan badiiy asarlar bilan talaba-yoshlarni yaqindan tanishtirib borish, ularda kitobni mutolaa qilish, tahlil qilib, o'zlarining mustaqil fikr bildirishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

yoshlar o'rtasida kitobxonlik harakati targ'iboti ta'sirchanligini yanada oshirish;

kitobning yosh avlodni har tomonlama yetuk, yuksak ma'naviyatli, intellektual salohiyatli, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida talabalarning tasavvurlarini yanada boyitish;

iste'dodli va iqtidorli talabalarni rag'batlantirishdan iborat.

### III. Ko'rik-tanlovini o'tkazish shartlari baholash mezonlari

6. Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Yosh kitobxon talabalar ligasi" tanlovini o'tkazish bo'yicha shoir-yozuvchilar, professor-o'qituvchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxassislardan iborat Hakamlar hay'ati tuziladi.

7. Tanlov oliy ta'lim muassasasida 1 bosqichda, fakultetlararo tuzilgan har bir fakultetdan 1 nafardan jamoa ishtirok etadi.

8. Har bir jamoada 6 tadan ishtirokchi tarkibda shakllantiriladi.

Tanlov shartlari quyidagicha:

#### **1-shart "Men yoqtirgan asar" sharti.**

Bunda, ishtirokchi jamoaning faqat 1 ta jamoa a'zosi tomonidan "Men yoqtirgan asar" nomi ostida o'zi sevib o'qigan asari bo'yicha qisqacha 3 daqiqa annotatsiya beradi. "Annotatsiya mahorati" shartida Hakamlar hay'ati ishtirokchilarning "Asarga tayyorlangan annotatsiya"sini baholashda ularning yoqtirgan asarni o'qiganligini tekshiradi hamda mohiyatini to'g'ri tushungani va ifoda etib bera olish qobiliyati, asarning g'oyasi va mazmunining to'liq qamrab olinganligi, kitobxon tomonidan asarga munosabatning (tanqidiy yoki ijobiy) qiziqarli va jozibador tarzda bildirilganligi, annotatsiya matnida fikrni ifodalash uslubi, badiiy obrazlarning real hayot bilan bog'liq ibratli tomonlari ochib berilganligiga qarab ball beradi. Ushbu shart 1-10 ballgacha (maksimal 10 ball) baholanadi.

#### **2-shart "Eng bilimdon kitobxon" savol-javob sharti.**

Bunda, tanlov ishtirokchilari o'rtasida 30 ta Jadidlar hayoti va ijodidan savol-javob o'tkaziladi. Barcha jamoalarga bir vaqtning o'zida bir xil savol beriladi. Jamoalar bergan javoblarini 1 daqiqa ichida blankka yozib berishlari kerak bo'ladi. Ushbu shart 1 ta savol uchun 1 balldan jami 30 ball bilan baholanadi.

Jamoalarning to'plagan ballari o'zaro teng kelib qolgan taqdirda 2-shart asosida qo'shimcha savollar beriladi va g'olib jamoa aniqlanadi.

9. *1-shartda* Hakamlar hay'atining har bir a'zosi o'zining bahosini namoyishkorona e'lon qiladi va asoslab beradi. Barcha a'zolarning qo'ygan ballari umumlashtirilib, ularning umumiy soniga bo'lingan holda 1-shart uchun o'rtacha ball chiqariladi.

10. Yakuniy ball – tanlovning ikkita sharti natijalari bo'yicha ishtirokchilarning to'plagan ballarini qo'shish ( $10+30=40$  ball) natijasi asosida aniqlanadi.

### V. Tanlovni o'tkazish tartibi va muddatlari

11. Tanlovni o'tkazish bo'yicha ta'lim muassasasida Ishchi guruh tuziladi. Ishchi guruhga universitet Yoshlar masalalari va ma'naviy — ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor rahbarlik qiladi hamda yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

12. Barcha bosqichlar bo'yicha soha olimlari, yozuvchilar, soha mutaxassislari, taniqli ijodkorlar, jamoat tashkilotlari vakillaridan iborat tarkibda Hakamlar hay'ati tuziladi.

13. Tanlov joriy yil aprel oyining birinchi o'n kunligida o'tkaziladi.

#### **VI. Tanlov g'oliblarini taqdirlash**

14. Tanlovning barcha ishtirokchilari fakultetlar tomonidan sertifikat va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlanishi mumkin.

15. Tanlovning g'olib 1-, 2-, 3-o'rin jamoalari ta'lim muassasasi tomonidan oliy ta'lim muassasasining talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan quyidagi tartibda:

**1-o'rin – har bir jamoa a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining uch barobari;**

**2-o'rin – har bir jamoa a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining ikki barobari;**

**3-o'rin – har bir jamoa a'zosiga bazaviy stipendiya miqdorining bir barobari miqdorida** pul mukofoti diplom va faxriy yorliqlari bilan taqdirlanadi.

#### **VIII. Yakuniy qoidalar**

16. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib boriladi.

17. Hakamlar hay'ati tomonidan belgilangan o'rin yuzasidan izoh beriladi. Qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.



**Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida "Yosh kitobxon talabalar ligasi" tanlovini o'tkazish yuzasidan Respublika va hududiy tashkiliy ishchi guruhi TARKIBI**

<b>T/r</b>	<b>Familyasi va ismi</b>	<b>Ish joyi va lavozimi</b>
1.	S.Buzrukxonov	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining o'rinbosari, Respublika tashkiliy ishchi guruh raisi
2.	N.Kasimov	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig'i, Tashkiliy ishchi guruh raisi o'rinbosari
3.	R.Xudayberganov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi direktori
4.	Sh.Raxmonov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i, a'zo Ishchi guruh kotibi
5.	I.Asomiddinov	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i, a'zo
6.	M.Gapparova	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi bo'lim boshlig'i, a'zo
7.	Lavozimiga ko'ra...	<b>Hududiy ishchi guruh</b> Oliy ta'lim muassasasi rektori, filiallar direktori hududiy tashkiliy ishchi guruhi raisi
8.	Tegishliligi bo'yicha lavozimiga ko'ra...	Oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari, hududiy tashkiliy ishchi guruhi raisi o'rinbosari
9.	Tegishliligi bo'yicha lavozimiga ko'ra...	Oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha bo'lim boshliqlari, a'zo
10.	Tegishliligi bo'yicha lavozimiga ko'ra...	Oliy ta'lim muassasalarining Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosarlari, a'zo